



## ERKIN A'ZAM QISSALARI: INSON RUHIYATI VA MILLAT TAQDIRI TALQINI

*Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti,*

*Adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi*

*2- kurs magistranti*

***Qayumova Mohira A'zamjon qizi***

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning qissachilik mahorati, asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va inson ruhiyatini tasvirlashdagi o'ziga xos uslubi tadqiq etiladi. Adibning "Bayramdan boshqa kunlar", "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob", "Pakananing oshiq ko'ngli" va "Guliguli" kabi qissalari misolida "kichik inson" fojiasi, ijtimoiy begonalashuv hamda totalitar tuzum asoratlarning badiiy talqini tahlil qilingan. Maqolada yozuvchi asarlaridagi retrospektiv tasvir va ramziylik masalalari ilmiy nuqtayi nazardan yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье исследуется мастерство народного писателя Узбекистана Эркина Азама в жанре повести, идейно-художественные особенности его произведений и уникальный стиль изображения человеческой психологии. На примере таких повестей, как "Bayramdan boshqa kunlar", "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob", "Pakananing oshiq ko'ngli" и "Guliguli", анализируются трагедия «маленького человека», социальное отчуждение и художественная интерпретация последствий тоталитарного режима. В статье с научной точки зрения освещаются вопросы ретроспективного изображения и символизма в произведениях писателя.

Abstract: This article examines the mastery of the People's Writer of Uzbekistan, Erkin Azam, in the genre of the novella, the ideological and artistic features of his works, and his unique style of portraying human psychology. Through novellas such as "Bayramdan boshqa kunlar", "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob",



“Pakananing oshiq ko‘ngli” and “Guli-guli” the tragedy of the "little man," social alienation, and the artistic interpretation of the consequences of the totalitarian regime are analyzed. The article highlights issues of retrospective imagery and symbolism in the writer's works from a scientific perspective.

Kalit so‘zlar. Erkin A‘zam, qissa, mahorat, psixologizm, retrospektiv, “kichik inson”, totalitarizm, badiiy obraz, ijtimoiy illat, ramziylik, ma‘naviyat.

Ключевые слова. Эркин Азам, повесть, мастерство, психологизм, ретроспектива, «маленький человек», тоталитаризм, художественный образ, социальный порок, символизм, духовность.

Keywords. Erkin Azam, novella, mastery, psychology, retrospective, "little man", totalitarianism, artistic image, social vice, symbolism, spirituality.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A‘zam bugungi adabiy jarayonning yetakchi siymolaridan biridir. Uning ijodiy yo‘li jamiyatda tub burilishlar yuz bergan 70-yillarda boshlangan bo‘lib, adib avval hikoyanavis, keyinchalik esa qissanavis sifatida kitobxonlar va munaqqidlar e‘tiborini qozondi. O‘ziga xos uslubi bilan u o‘zbek adabiyotida mustahkam o‘ringa ega bo‘ldi.

Erkin A‘zamni shunchaki nosir deb atash uning mahoratiga berilgan kamtarona baho bo‘lar edi. U dramaturgiya va publisistikada ham barobar qalam tebratib, har bir janrda o‘z iste‘dodini yorqin namoyon eta olgan ijodkordir. Ayniqsa, kinodramaturgiya sohasidagi muvaffaqiyatlari — asarlari asosida olingan filmlarning xalqaro festivallarda e‘tirof etilishi adibning jahon miqyosidagi nufuzidan dalolat beradi. Uning har bir ijodiy yo‘nalishi alohida tadqiqotga loyiq bo‘lsa-da, biz quyida Surxondaryo zaminidan yetishib chiqqan adibning qariyb o‘nta qissani o‘z ichiga olgan qissachilik mahoratiga to‘xtalamiz. Adibning 1981-yilda chop etilgan “Otoyining tug‘ilgan yili” nomli debyut qissasi talaba yoshlar o‘rtasida katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Asarning muvaffaqiyati undagi hayotiy



haqiqatlarning bo'yab-bejalmay, samimiy va biroz kinoyali tilda bayon etilganidadir. Qissa qahramoni Asqar Shodibekov — soxtalik va laganbardorlikka toqatsiz yigit. Uning uchun haqiqat hamma narsadan ustun: ko'nglidagisini baralla aytmasa, vijdoni qiynaladi. Biroq uning bu murosasiz xarakteri atrofida gilar tomonidan har doim ham xush qarshilanmaydi. Kursdoshlarining ikkiyuzlamachiligi va ba'zi ustozlarining mantiqsiz talablariga qarshi isyoni oqibatida u imtihondan yiqiladi. Asarning tub mohiyati va Asqar xarakterining kaliti hisoblangan "Aytsam – o'ldururlar, aytmasam – o'lam..." epigrafi o'quvchini asar mazmuniga tayyorlaydi.

1986-yilda ommaga taqdim etilgan "Javob" qissasi o'z davrida katta bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Buning asosiy sababi Erkin A'zamning an'anaviy "kurashuvchan qahramon" tushunchasidan voz kechib, markazga Nuriddin Elchiyev kabi kamtar, mute va boriga shukr qilib yashaydigan "kichik inson" obrazini olib chiqqanidir. O'sha davr mafkurasi faol va isyonkor qahramonlarni talab qilsa-da, adib Elchiyev timsolida inson ruhiyatining murakkab qirralarini, uning ichki iztiroblari va armonlarini tadqiq etdi. Bu orqali yozuvchi adabiyotning asl vazifasi — ijtimoiy shiorlar emas, balki inson ko'ngli ekanligini isbotladi.

"Javob" qissasining qahramoni Nuriddin Elchiyev o'zining haddan tashqari muloyimligi sababli nafaqat hamkasblari va do'stlari, balki o'z farzandlarining ham ta'nasiga qoladi. Bu ruhiy bosimlarga chidolmay o'z joniga qasd qiladi, biroq omon qolganidan so'ng, shifoxonada o'z o'tmishini chuqur tahlil qila boshlaydi. U boshiga tushgan barcha kulfatlarni o'z qilmishlarining achchiq "javobi" sifatida anglab yetadi va asar fojiaiviy ruhda bo'lsa-da, qahramonning o'zligini anglashi bilan ijobiy yakun topadi.

Adibning "Bayramdan boshqa kunlar" qissasida esa milliy ma'naviyat va jamiyat illatlari ochiq-oydin fosh etiladi. Haydovchi Bakir san'atshunos Bargidaga uylanib, uning boy va "bayramona" yashaydigan xonadoniga tushib qoladi. Biroq begona uy, qarzlar va ma'naviy qashshoqlik Bakirni qafasga tushgan qushdek qiynaydi. Muallif bu oila misolida g'arblashuv, ona tilining buzilishi va mehr-



oqibatning yo‘qolishini mahorat bilan ko‘rsatadi. Bakir obrazi orqali sho‘ro siyosatining aldovlari ostida qolgan butun bir millat fojiasi ramziy ifoda etilgan.

Yozuvchining “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” asari boshqa qissalaridan o‘ziga xos mavzusi va kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Voqealar sobiq sho‘ro davrida kechib, unda bir guruh ijodkorlarning nomsiz, ammo tuzumi tanish bir mamlakatga qilgan safari hikoya qilinadi. Muallif bu davlatning nomini ochiq aytmasa-da, tasvirlar orqali uning kommunistik va totalitar tuzum ekanligiga ishora qiladi. Adib begona mamlakat niqobi ostida o‘sha davrdagi siyosiy tizimning puch g‘oyalari, soxta balandparvozlari va mantiqsiz boshqaruv usullari ustidan ayovsiz kinoya qiladi. Erkin A‘zam ijodida “Shoirning to‘yi” qissasi alohida mavqega ega bo‘lib, u nafaqat shaxs, balki butun bir xalqning fojiali o‘tmishi — qatag‘on davri haqida hikoya qiladi. Asar voqealari mustaqillik arafasidagi, tarixga “Oshkoralik yillari” nomi bilan kirgan davrda kechadi. Markaziy mavzu — o‘z davrida “xalq dushmani” deb qatag‘on qilingan Otashqalb shoirning fojiali qismatidir.

Zamon o‘zgarishi bilan shoir oqlanadi va uning nomini o‘chirishga uringan, uni tuhmat bilan qamatgan sobiq safdoshlari endi uning yubileyini tantana qilishga tushadilar. Kechagina uni yomonotliq qilgan kimsalar, bugun uni millat qahramoni sifatida ko‘klarga ko‘tarishadi. Asarning eng og‘riqli nuqtasi — mana shu xotira tadbiriga Otashqalb shoirning o‘zi nogironlar aravachasida, tilsiz va qo‘l-oyoqsiz holatda kelishidir. Achinarlisi, uni dabdaba bilan maqtayotganlar orasida hech kim bu haqiqiy qahramonni tanimaydi. Shoir o‘z “do‘st” larining bu qadar pastkashligi va ikkiyuzlamachiligidan qattiq iztirobga tushadi.

Asar qurilishi (syujeti) retrospektiv uslubda bo‘lib, unda ikki davr: qonli qatag‘on yillari va erkinlik epkini esa boshlagan yillar parallel ravishda tasvirlanadi. Bu ikki davr o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini esa xolis guvoh — Otashqalb shoirning o‘zi bajaradi. Qissa kutilmagan va fojiali yechim bilan tugaydi: shaharda bir kechada ikki sirli o‘lim yuz beradi. Biri — Oqsoqol shoirning o‘z hovlisida yurak xuruji hamda nogiron vujuddan tushgan zarba natijasidagi o‘limi. Ikkinchisi —



Otashqalbning g'oyib bo'lishi. Muallif unga nisbatan "o'lim" so'zini ishlatmaydi, ammo qolgan hujjatlar va ashyolar bu fojidan darak beradi. Mazkur qissa o'zbek adabiyotida qatag'on mavzusini realistik bo'yoqlarda ochib bergan eng sara asarlardan biri sanaladi. Mustaqillikning ilk yillarida Erkin A'zam jamiyatdagi shiddatli evrilishlarga munosabat bildirib, ko'proq publitsistik janrda samarali ijod qildi. Davlat va jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritishi uning nasriy ijodida biroz tanaffus yasagandek bo'ldi. Biroq 2001-yilga kelib, adibning istiqlol davridagi asarlari jamlangan "Pakananing oshiq ko'ngli" kitobi nashr etildi.

Ushbu to'plamdan joy olgan va kitobga nom bergan qissa adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Xususan, ulkan yozuvchi Shukur Xolmirzayev ham bu asarga befarq qolmay, muallifga maktub tarzida yozilgan "O'ttiz besh yoshda ham" nomli essesda o'zining ijobiy va tahliliy munosabatini bildirib o'tgan. Bu asar Erkin A'zamning yangi davr o'zbek nasrida inson ruhiyatini tasvirlashdagi mahorati hamon baland ekanini isbotladi. Erkin A'zamning "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi tashqi ko'rinishi (bo'yi pastligi) sababli shaxsiy hayotda, xususan, ishq bobida omadi chopmagan romantik yigit qismati haqida. Bu asar o'zining yengil yumori, o'tkir ziddiyatlari va qiziqarli hayotiy tafsilotlarga boyligi bilan kitobxonni o'ziga tortadi.

Asar qahramoni — Pakana o'zining jismoniy kamchiligidan qattiq iztirobga tushadi. U bo'yini o'stirish uchun eng g'alati va turfa usullarni qo'llab ko'radi, ko'p vaqt va kuch sarflaydi, biroq barcha urinishlari besamar ketadi. Taqdir taqozosi bilan u o'zi kutgan "malohatli malika" larga emas, balki ko'rinishi oddiy, unchalik sohibjamol bo'lmagan bir qizga uylanadi. Uning oila qurishi va farzand ko'rishi bilan bog'liq voqealar silsilasi o'quvchida ham kulgu, ham achinish hissini uyg'otadi. Qissa yakunida qahramon nihoyat haqiqatni anglab yetadi: u uzoq vaqt puch xayollar va sarob ortidan quvib, yonidagi haqiqiy baxtning qadriga yetmaganidan qattiq afsuslanadi.



Biroq asar shunchaki bir yigitning sarguzashtlari emas. Undagi voqealar sotsializmning so'nggi yillarida kechadi va asarning tub qatlamlarida o'sha davr jamiyatiga nisbatan achchiq haqiqatlar hamda kuchli ramziy ma'nolar yashiringan. Bizningcha, bu qissa ko'p jihatdan sobiq Ittifoq mafkurasi va amaliyotining naqadar soxta hamda "pakana" ekanini fosh qilishga qaratilgan. Totalitar tuzumga ishoralar asarning har bir qadamida sezilib turadi. Ayniqsa, qahramonning o'z dardi (pakanalik)dan qutulish ilinjida daroz (uzun bo'yli) do'sti yetovida borgan "ulug'vor qo'rg'on" tasviri o'sha davrdagi siyosiy tizimning g'ayriinsoniy va sun'iy qiyofasini yaqqol aks ettiruvchi buyuk ramzdir. Bu asar haqida professor Abdug'afur Rasulov: "Guli-guli" qissasida maymunning maymunliklari, Olma kelin, Musallam kokildorning xiyonati haqida yozilgan. Sharm-hayo, insof-iymon ko'tarilgan joyda fayz-futur, qut-baraka bo'lmaydi. Insonlarning qornini to'ydirish, bilimli qilish yaxshi, lekin ma'naviyatli, din-diyonatli, haromdan jirkanadigan etib tarbiyalash - eng asosiy masala deb ta'kidlaydi. Erkin A'zam - millatini, vatanini sevadigan inson. Uning mana shu xislati xoh publitsistikada, xoh badiiy adabiyotda bo'lsin, har qanday yozgan asarida ko'rinadi. Adibning "Guli-guli" qissasi aynan millat ma'naviyati, millat bo'linsa, inson deb atalmish maxluqot insoniylikdan uzoqlashib ketsa, jirkanch mavjudotga aylanib qolishi kabi fojialar yuz berishi haqida. Bu bilan yozuvchi odamlarni INSON degan nomga loyiq bo'lishga da'vat etadi. Insoniyat bilan hayvonot o'rtasidagi masofa bir vaqtning o'zida bir qadam va ming qadam ekanligini ta'kidlaydi. Kommunistik tuzum rahbarlariga aloqadorligi kabilar shular jumlasidandir. Bu haqida avvalgi tadqiqotlarimizda alohida to'xtalib o'tganmiz. Asarni o'qir ekan, bir qishloqdagi voqealar asosida butun mamlakatda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy ahvolga ishora qilinganligini sezadi kishi.

Erkin A'zam - serqirra ijodkor. U yillar davomida asardanasarga o'sib, ko'p qirrali mohir san'atkorga aylandi. Uning qissachilikdagi yutuqlari haqida fikrimizni ushbu kichik tadqiqotda muxtasar tarzda bayon etdik. Qissachilik Erkin A'zam



ijodining bir qirradi xolos. Keyingi yillarda adib ijodining adabiyotshunoslik, tilshunoslik, kinoshunoslik hamda teatrshunoslik sohalarida keng miqyosda o'rganilishiga e'tibor berilayotgani, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan adib ijodi obyekt sifatida olinayotgani bekorga emas, albatta. Chunki adib ijodi ilmiy tadqiqot uchun material bera oladi, asarlari qatida umumbashariy, umuminsoniy va umummilliy dardlar aks etib turadi. Umuman, Erkin A'zam ijodini, uning badiiy mahoratini o'rganish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Erkin A'zam - o'z millati va Vatanining istiqboliga befarq bo'lmagan, qalbi vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan ijodkordir. Adibning bu xislati uning publitsistik chiqishlarida ham, nasriy asarlarida ham yaqqol bo'y ko'rsatadi. Ayniqsa, uning "Guli-guli" qissasi millat ma'naviyatiga daxldor eng og'riqli nuqtalarni o'rtaga tashlaydi. Asarning asosiy g'oyasi - insoniylik qiyofasini yo'qotish fojiasi haqida. Yozuvchi inson deb atalmish oliy mavjudot agar ma'naviy ildizlaridan uzilsa, o'zligini yo'qotsa, naqadar jirkanch maxluqqa aylanishi mumkinligini mahorat bilan tasvirlaydi. Bu orqali adib har bir kitobxonni INSON degan ulug' nomga munosib yashashga chorlaydi.

Muallifning falsafiy xulosasiga ko'ra, insoniyat va hayvonot olami o'rtasidagi masofa bir vaqtning o'zida ham juda yaqin (bir qadam), ham cheksiz darajada uzoqdir (ming qadam). Bu chegara insonning ichki madaniyati, vijdoni va ma'naviy dunyosi bilan belgilanadi.

Erkin A'zam — o'z asarlarida (xoh nasrda, xoh publitsistikada) millat va Vatan sevgisini eng oliy qadriyat deb bilgan ijodkor. Uning "Guli-guli" qissasi aynan millat ma'naviyati inqirozga yuz tutsa, inson degan oliy zot naqadar tuban maxluqqa aylanishi mumkinligini ko'rsatadi. Adib odamlarni "INSON" degan nomga munosib bo'lishga chaqirar ekan, insoniylik va hayvonot o'rtasidagi masofa bir qadamlik imtihon ekanini uqtiradi.

Qissadagi birgina qishloq hayoti misolida butun mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va madaniy ahvolga kuchli ishora qilingan. Pakanalik dardiga



davo izlangan qo'rg'ondagi "Stalin ko'chasi" kabi detallar va tabib cholning kommunistik tuzum arboblari bilan aloqalari totalitar tizim asoratlarini fosh etadi.

Erkin A'zam yillar davomida asardan-asarga o'sib, o'zbek adabiyotining serqirra san'atkoriga aylandi. Bugungi kunda adib ijodining nafaqat adabiyotshunoslik, balki:

Tilshunoslik (o'ziga xos uslubi va tili);

Kinoshunoslik (ssenariylari asosidagi filmlar);

Teatrshunoslik (dramaturgik mahorati)

yo'nalishlarida keng o'rganilayotgani bejiz emas. Uning asarlari umumbashariy va milliy dardlarni o'zida mujassam etganligi sababli ilmiy tadqiqotlar uchun boy material beradi. Shuning uchun ham Erkin A'zam mahoratini o'rganish zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi oldidagi dolzarb vazifadir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos maktab yaratgan, millatning dardi va ruhiyatini badiiy matnga muhrlay olgan betakror san'atkordir.

Erkin A'zam qahramonlari har doim ichki erkinlik va jamiyatdagi soxtalik o'rtasidagi ziddiyat markazida turadi. Asqar Shodibekovning isyonkorligi, Nuriddin Elchiyevning ma'naviy uyg'onishi yoki Bakirning begonalashuv fojiasi — bularning barchasi yozuvchining inson shaxsini barcha murakkabliklari bilan tadqiq etishga bo'lgan intilishidan dalolat beradi.

Adib asarlarida retrospektiv tasvir va ramziylik yetakchi o'rin tutadi. "Shoirning to'yi" qissasidagi o'tmish va bugun parallelizmi yoki "Pakananing oshiq ko'ngli" dagi "Stalin ko'chasi" kabi detallar shunchaki tasviriy vosita emas, balki totalitar tuzum asoratlarini fosh etuvchi kuchli ijtimoiy-siyosiy metaforalardir.

Uchinchidan, Erkin A'zam ijodi milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan. Adibning serqirra faoliyati (nasr, dramaturgiya, publitsistika, kino) o'zbek adabiyoti va san'atining o'zaro integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Bugungi kunda Erkin A'zam asarlarining tilshunoslik va



kinoshunoslik obyekti sifatida o'rganilayotgani uning ijodi nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim ma'naviy manba ekanini isbotlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A'zam E. Bayramdan boshqa kunlar: qissa va hikoyalar.
2. A'zam E. Ertak bilan xayrlashuv: qissalar va hikoyalar.
3. A'zam E. Guli-guli qissasi
4. A'zam E. Kechikayotgan odam qissasi
5. Erkin A'zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami.